

**ION-PLAZMA VA LAZER TEXNOLOGIYALARI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.FM/T.65.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

ABSANOV AXMAD ABDUSATTAROVICH

**MOLEKULYAR KLASTERLARDAGI MOLEKULALARARO
TA'SIRLAR VA ULARNING TEBRANISH SPEKTRLARIDA NAMOYON
BO'LISHI**

01.04.05 – Optika

**Fizika-matematika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Doktorlik (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации
Contents of the Doctoral (DSc) Dissertation Abstract

Absanov Axmad Abdusattarovich Molekulyar klasterlardagi molekulararo ta'sirlar va ularning tebranish spektrlarida namoyon bo'lishi	3
Абсанов Ахмад Абдусаттарович Межмолекулярные взаимодействия в молекулярных кластерах и их проявление в колебательных спектрах.....	25
Absanov Akhmad Abdusattarovich Intermolecular interactions in molecular clusters and their manifestation in vibrational spectra	49
E'lon qilingan ishlar ro'yxati Список опубликованных работ List of published works.....	53

**ION-PLAZMA VA LAZER TEXNOLOGIYALARI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.FM/T.65.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

ABSANOV AXMAD ABDUSATTAROVICH

**MOLEKULYAR KLASTERLARDAGI MOLEKULALARARO
TA'SIRLAR VA ULARNING TEBRANISH SPEKTRLARIDA NAMOYON
BO'LISHI**

01.04.05 – Optika

**Fizika-matematika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.DSc/FM284 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.iplt.uz) hamda «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi: **Jumabayev Abduvohid**
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Eshchanov Baxodir Xudayberganovich**
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Astanov Salix Xusenovich
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Raxmatullayev Ilyos Arzimuratovich
fizika-matematika fanlari doktori

Yetakchi tashkilot: **Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Ion-plazma va lazer texnologiyalari instituti huzuridagi DSc.02/30.30.12.2019.FM/T.65.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil "11" *fevral* soat 14³⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100125, Toshkent sh., Do'rmon yo'li ko'chasi 33-uy. Tel./Faks: (+99871) 262-32-54, e-mail: info@iplt.uz. Ion-plazma va lazer texnologiyalari instituti majlislar zali).

Dissertatsiya bilan Ion-plazma va lazer texnologiyalari institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 3 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100125, Toshkent sh., Do'rmon yo'li ko'chasi 33-uy. Tel./Faks: (+99871) 262-31-69.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil "28" *yanvar* kuni tarqatildi.
(2025 yil "28" *yanvar* dagi № 3 raqamli reestr bayonnomasi).



X.B. Ashurov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
t.f.d., professor.

I.D. Yadgarov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
f-m.f.d., professor.

U.K. Maxmanov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, f-m.f.d., professor.

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda dunyoda ko'p sonli biologik sistemalar va ularning makroskopik xususiyatlarini mikroskopik darajadagi molekulalar va atomlar o'rtasidagi o'zaro ta'sirlar orqali o'rganish katta qiziqish uyg'otmoqda. Shuning uchun ko'pgina fizik, kimyoviy, biotexnologik, tibbiy, biologik va ishlab chiqarish jarayonlarini tushunish mikroduyo miqyosidagi fizik jarayonlarning qonuniyatlarini chuqur bilishni talab qiladi. Molekulalar o'rtasidagi o'zaro ta'sirlar yangi molekulyar klasterlarning PKydo bo'lishiga olib keladi, jumladan, kimyoviy bog'lanishlar bilan bir qatorda nokovalent o'zaro ta'sirlar suyuqliklarda, DNK va oqsillar kabi makromolekulalarda, molekulyar identifikatsiyada, supramolekulyar kimyoda, konformatsion tuzilishda, biomolekulalarning reaktivligi va funksionalligida molekulyar jarayonlar to'g'risida yetarlicha ma'lumotlar olish imkonini beradi.

Jahonda olib borilayotgan ko'p sonli tadqiqotlarning natijalari shundan dalolat beradiki, tebranish spektroskopiyasi orqali molekulyar klasterlardagi nokovalent o'zaro ta'sirlarni o'rganish juda muhimdir. Ushbu o'zaro ta'sirlarni tebranish spektroskopiyasi yordamida o'rganish molekulyar klasterlarning murakkab ichki dinamik harakatlari, dipol momenti, qutblanuvchanlik va relaksatsion jarayonlarning nafaqat molekulyar spektroskopiya fani nuqta'i nazaridan, balki materialshunoslik, farmatsevtika, tibbiyot, biologiya va oziq-ovqat sanoati kabi sohalardagi mavjud ilmiy muammolarni hal qilish uchun ham ahamiyatlidir. Tebranish spektroskopiyasi va zamonaviy kvant-kimyoviy hisoblash usullari yordamida turli molekulalararo ta'sirlar (vodorod bog'lanish, galogen bog'lanish) orqali hosil qilingan klasterlarning tuzilishi, optimal geometriyasi atrofidagi orientatsiyasi, simmetriyasi va garmonik spektral parametrlarini aniqlash dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Mamlakatimizda fundamental fanlarning amaliy rivojlanishiga, jumladan, oziq-ovqat, tibbiyot, materialshunoslik, farmatsevtika va boshqa sohalarda keng qo'llaniladigan nokovalent o'zaro ta'sirlar va ularning turli erituvchilardagi xarakterli tebranishlarining spektral ko'rinishlarini o'rganishga katta e'tibor qaratilmoqda. Shu sababli eritmalaridagi molekulalararo o'zaro ta'sirlar tabiatining spektroskopik parametrlarini o'rganish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-dekabrda Oliy Majlisga va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida ilm-fanni rivojlantirish bo'yicha belgilangan vazifalarga muvofiq fundamental va amaliy masalalarni hal etishga qaratilgan ilmiy izlanishlar yo'lga qo'yilayotgani muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ushbu dissertatsiya ishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni, 2020-yil 29-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasi¹, 2021-yil 19-martda PQ-5032-sonli "Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2022-yil 13-yanvarda PQ-82-son

¹ Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Xalq so'zi, 2020 yil, 30 dekabr, №275-276(7746-7747), 1-bet

“Samarqand davlat universiteti faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda ushbu faoliyatga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining II. “Fizika, astronomiya, energetika va mashinasozlik” ustuvor yo‘nalishi doirasida amalga oshirilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi². Molekulyar klasterlardagi nokovalent o‘zaro ta’sirlar, tebranish modlari o‘rtasida yuzaga keladigan ta’sirlar va ularning tebranish spektrlarida namoyon bo‘lishi o‘rtasidagi munosabatlarni tahlil qilish orqali murakkab biologik ob‘yektlarning tuzilishi va optik xossalarini o‘rganishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta’lim muassasalarida olib borilmoqda. Jumladan, Chexiya Fanlar Akademiyasi organik kimyo va biokimyo instituti, Nagoya universiteti (Yaponiya), Rossiya Fanlar Akademiyasining Sibir filiali kimyo va kimyoviy texnologiya instituti, Seul Milliy universiteti (Janubiy Koreya), Sankt-Peterburg davlat universiteti, Bing universiteti (Turkiya), P.N.Lebedev nomidagi Fizika instituti, Moskva davlat universitet (Rossiya), Kiev milliy universitetlarida (Ukraina) fundamental va amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Tebranish spektroskopiyasi va zamonaviy kvant-kimyoviy hisoblash usullaridan foydalanish molekulyar klasterlarning turli tipdagi nokovalent (H-bog‘, galogen bog‘) bog‘lanishlar orqali hosil qilgan klasterlarining boshqa kimyoviy usullar bilan aniqlash imkonsiz bo‘lgan tuzilishi, optimal geometriyasi atrofidagi orientatsiyasi, simmetriyasi, garmonik spektral parametrlarini aniqlash imkonini beradi. Vodorod bog‘lanish va kuchsiz van-der-vaal’s o‘zaro ta’sirlar molekulyar klasterlardagi molekularlar sonining ortishi bilan Raman va IQ spektral polosalariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi va vodorod bog‘lanishga bevosita aloqador bo‘lgan funksional guruhlariga tegishli tebranish intensivliklarining qayta taqsimlashlariga olib keladi.

Bugungi kunga kelib, molekulyar klasterlarda molekularlararo vodorod bog‘lanishning tabiatini tadqiq etish sohasida dunyoda bir qator tadqiqotlar tebranish spektroskopiya usulida amalga oshirilmoqda, ular orasida vodorod va galogen bog‘lanishlarning hosil bo‘lish mexanizmini va biologik faol moddalarda kovalent va nokovalent ta’sirlarning muhim turlarini o‘rganish eng ustuvor yo‘nalish sifatida qaralmoqda.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Keyingi yillarda jahon olimlari P.Hobza (Chexiya), X.Torii (Yaponiya), A.Kazachenko (Rossiya), F.Akman (Turkiya) nokovalent ta’sirlarni o‘rganishda spektroskopik va kvant-kimyoviy hisoblashning turli usullaridan foydalanganlar. Ukrainalik olimlar V.E.Pogorelov,

² Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi: Hobza P., Müller-Dethlefs K. // Chem. Rev., 2000. 100(1), 143-168; 159. Torii H. // J. Chem. Phys., 2010.133(3); A.S. Kazachenko et al. // J. Mol. Liq. 2022. 363, 1, 119859; F.Akman et. al. // J. Mol. Mod. 2020. 26, 161; V.Pogorelov, L.Bulavin, I.Doroshenko, O.Fesjun, O.Veretennikov // J.Mol.Struct. 2004. 708, 61; bundan tashqari www.scopus.com, www.nature.com, www.sciencedirect.com, Web of Science va boshqa manbalar asosida olib borildi.

L.Bulavin va I.Doroshenkolar tomonidan organik va noorganik molekulalarning strukturaviy, elektron va tebranish xususiyatlarini tebranish spektroskopiyasi va kvant-kimyoviy hisoblash usullaridan foydalangan holda o'rganilgan.

Bu yo'nalishning rivojlanishiga O'zbekistonlik olimlar, xususan akademiklar: A.K.Otaxo'jayev va P.Q.Habibullayev, professorlar: F.X.Tuxvatullin, N.Nizomov, L.M.Sabirov, Sh.Otajonov, A.Jumaboyev, U.N.Tashkenbayev, H.A.Xushvaqto'v, B.Eshchanov va boshqalar katta hissa qo'shdilar.

So'nggi yillarda nashr etilgan adabiyotlar sharhi shuni ko'rsatadiki, molekulyar suyuqliklar va ularning turli xil eritmalardagi molekulyar klasterlarning hosil bo'lish mexanizmi va ulardagi molekulalararo ta'sirlarning tebranish spektrlarida namoyon bo'lishini tahlil qilish orqali murakkab biologik ob'ektlarning tuzilishi va optik xossalari bo'yicha ishonchli ma'lumotlar olish yetarlicha o'rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq OT-Φ2-003 raqamli "Moddaning kondensirlangan va gaz holatlarida vodorod bog'lanish va boshqa turdagi o'zaro ta'sirlar orqali molekula agregatsiyasini molekulyar spektroskopiya usuli yordamida eksperimental va nazariy o'rganish" (2007-2011 yy.), Φ-2-20 raqamli "Molekulyar agregatlarning bog'lanish energiyasi va tuzilishi (nanoklasterlar), tajriba va hisoblashlar" (2012-2016 yy.), OT-Φ2-40 raqamli "Molekulyar klasterlarning hosil bo'lish mexanizmlari va ularning tebranma spektrlarda namoyon bo'lishi" (2017-2020 yy.) va Φ3-20200929385 raqamli "Biologik ob'ektlarning nanoo'lchamli molekulyar klasterlarini o'rganish va tadbiiq qilishning spektroskopik hamda noempirik tahlil usullarini ishlab chiqish" (2022-2027 yy.) mavzularidagi fundamental loyihalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi murakkab molekulyar klasterlarning shakllanish mexanizmlarini va ulardagi molekulalararo o'zaro ta'sirlarning tabiatini tajriba va kvant-kimyoviy hisoblashlar yordamida aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Qo'yilgan maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar qo'yildi:

biologik faol moddalarning turli xil erituvchilardagi xarakterli nokovalent bog'lanishlarini tebranish spektrlariga ta'sirini tahlil qilish, tajriba va hisoblash natijalarini taqqoslash va muhim qonuniyatlarni aniqlash;

tajriba va kvanto-kimyoviy hisoblash usullaridan foydalangan holda tanlangan ob'ektlarda erituvchining molekulyar klasterlarning shakllanish mexanizmlariga ta'sirini o'rganish;

molekulyar klasterlardagi nokovalent o'zaro ta'sirlarni aniqlash, xususan, vodorod bog'lanish, Van-der-Vaal's va galogen o'zaro ta'sirlarning energetik parametrlarini aniqlash;

klasterlar hosil bo'lish jarayonida o'zaro ta'sirlashuvchi molekulalar konsentratsiyasining Raman va IQ yutilish spektrlariga ta'sirini o'rganish.

Tadqiqot ob'ektlari sifatida sirka, propion, uchftorsirka va moy kislotalari, etil spirti va asetonitril kabi biologik faol moddalar va ularning turli eritmalaridagi molekulyar klasterlari tanlab olingan.

Tadqiqotning predmeti sifatida tadqiq etilayotgan molekularning turli erituvchi molekulari bilan hosil qilgan molekulyar klasterlarining xarakterli tebranish spektrlarida molekulararo o'zaro ta'sirlari va klaster hosil bo'lish jarayonlari o'rganiladi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida tebranish (Raman va IQ) spektroskopiyasi va kvant-kimyoviy hisoblash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagi natijalardan iborat:

ilk bor tajribalarda sirka va propion kislotalari C=O tebranish polosalarining murakkabligi turli molekulyar klasterlarning mavjudligi bilan bog'liq bo'lib, bog'langan elektron bulutning qayta taqsimlanishi C=O bog'lanish kuch doimiysining bir-biridan farq qilishi aniqlangan;

hisoblashlarda sirka va propion kislotalarining asetonitril va suv bilan eritmalarida O-H...N va C=O...H ko'rinishidagi vodorod bog'lanish hosil bo'lishi sababli C=O valent tebranish polosalarining maksimumlarida siljish aniqlangan;

ilk bor hisoblashlarda propion kislotasida to'rt tipdagi dimerlar geometrik tuzilishi va o'zaro ta'sir energiyalari hamda eng barqaror dimer aniqlangan hamda bunday dimerning shakllanishida molekulararo vodorod bog'lanishlar dominant rol o'ynashi ko'rsatilgan;

ilk bor hisoblashlarda uchftorsirka kislotasi suv molekulari bilan turli xil molekulyar klasterlarni hosil qilib, klasterdagi suv molekulari sonining oshishi bilan klaster barqarorlashishi aniqlandi. Bunday klasterlar orasida eng barqarori [CF₃COOH+(H₂O)₄] klaster bo'lib, bisiklik shaklda bo'ladi. Suv molekulari soni beshtaga yetganda, kislotaning karboksil guruhiga tegishli bitta proton suv molekulasiga o'tadi va -COO-H₂O⁺ anioni hosil bo'ladi;

moy kislotasining monomer, dimer, trimerlari hamda uning asetonitril, DMSO, pridin va suv bilan eritmalarida C=O va O-H tebranishlarga mos keladigan spektral chiziqlarning qizil siljishi aniqlandi va bu siljish siklik yopiq dimerlarda eng katta bo'lib, siklik yopiq dimerning energetik jihatdan barqarorligi aniqlangan;

etanolning suvli eritmalarida etanolning miqdori kamayishi bilan Raman va FTIR spektrlaridagi C-H va O-H valent tebranishlariga mos keladigan polosalarining yuqori chastota tomonga siljishi kuzatilgan, bunda suv molekulari sonining oshishi bilan O-H...O va C-H...O ko'rinishidagi vodorod bog'lanishlar hosil bo'lishi kuzatilgan;

asetonitril va uning suv bilan eritmasida C-H...O va C≡N...H ko'rinishidagi noklassik vodorod bog'lanishlar hosil bo'lishi natijasida asetonitrilning C≡N va C-H tebranish polosalarining ko'k siljishi aniqlangan;

asetonitrilning formamid bilan eritmalarida C-H...O va C≡N...H ko'rinishidagi noklassik vodorod bog'lanishlarning hosil bo'lishi aniqlangan, bu esa asetonitrilning miqdori kamayishi bilan C≡N valent tebranish polosalarining ko'k siljishiga olib kelishi ko'rsatilgan;

ilk bor noempirik hisoblashlarda asetonitril, pridin va DMSO molekularining galogen molekulari (Br₂, Cl₂ va BrCl) bilan o'zaro ta'sirlari o'rganilgan.

Asetonitrilning galogen molekulari bilan klasterlarida $C\equiv N$ valent tebranish polosalarining ko'k siljishi kuzatilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tebranish spektrlari va kvant-kimyoviy hisoblashlar yordamida biologik faol moddalar va ularning eritmalarida nokovalent o'zaro ta'sirlarning spektroskopik parametrlarining tajriba natijalariga mos kelishi ko'rsatilgan;

biologik faol moddalarning erituvchi molekulari bilan o'zaro ta'sirlari natijasida molekulyar klasterlarning hosil bo'lish mexanizmini o'rganish kondensirlangan holatdagi molekulyar klasterlarning tuzilishini aniqlashda katta ahamiyatga ega ekanligi va olingan natijalardan molekulyar spektroskopiya, molekulyar fizika va biofizika sohasidagi tadqiqotlarda foydalanish mumkinligi ko'rsatilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotlarda so'nggi rusumdagi zamonaviy qurilmalardan foydalanilgan. Shuningdek, tajriba tadqiqotlari natijalarini tahlil qilish uchun yuqori aniqlikdagi kvant-kimyoviy hisoblash usullaridan foydalanish hisobiga amalga oshirilgan. Olingan tajriba natijalari va ular asosida chiqarilgan xulosalar, biologik faol moddalar hamda ularning eritmalaridagi molekulyar klasterlarning hosil bo'lish mexanizmlarini o'rganishga bag'ishlangan zamonaviy tadqiqotlar ma'lumotlariga mos keladi. Kvant-kimyoviy hisoblashlar natijalarining ishonchliligi, tasdiqlangan usullardan foydalanish va ularning boshqa mualliflar tomonidan olingan natijalarga mos kelishi bilan ta'minlanadi. Olingan natijalarning ishonchliligi, shuningdek, boshqa mualliflarning ushbu dissertatsiya mavzusi bo'yicha nashr etilgan maqolalarga (SCOPUS ma'lumotlar bazasi bo'yicha) 100 dan ortiq havolalari bilan tasdiqlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati biologik faol moddalar eritmalarida nokovalent o'zaro ta'sirlarni o'rganish va ularning xarakterli tebranish sohalarida namoyon bo'lishidan iborat. Molekulalararo ta'sirlarni molekulyar klasterlarning tuzilishi, elektron va tebranish chastotalariga ta'sirini chuqurroq tushunish biologik faol moddalar va ularning eritmalaridagi molekulyar jarayonlarni baholash uchun fizik tushunchalarni yanada rivojlantirishga yordam beradi.

Natijalarning amaliy ahamiyati shundaki, biologik faol moddalar molekulari orasidagi nokovalent ta'sirlar tirik organizmlarning faoliyatida muhim rol o'ynaydi. Ushbu tadqiqot natijalari biomolekulalarning xususiyatlari va ularga eritvchilarning ta'sirini chuqurroq tushunish bo'yicha yangi ma'lumotlar olish imkonini beradi. Aniqlangan natijalar nokovalent ta'sirlarning spektroskopik parametrlarga ta'sirini bashorat qilish va tebranish parametrlari hamda muhitning makroskopik xususiyatlari o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash uchun zarurdir.

Tadqiqot natijalarini joriy qilish.

Molekulyar klasterlardagi molekularlararo ta'sirlar va ularning tebranish spektrlarida namoyon bo'lishi bo'yicha olingan natijalar asosida tadqiqot natijalari amaliyotga joriy etilgan:

asetonitril-galogen klasterlarida $C\equiv N$ guruhi orqali kuchsiz H-bog'lanishlar orqali nokovalent o'zaro ta'sirlarni aniqlash natijalari Tojikiston Milliy Fanlar Akademiyasi S.U.Umarov nomidagi Fizika-texnika instituti Kvant elektronikasi

laboratoriyasida bajarilgan 0121TJ1255 raqamli «Разработка технологии изготовления светодиодов, инжекционных лазеров и новейших сверхчувствительных датчиков на основе полупроводниковых соединений» mavzusidagi fundamental tadqiqot loyihasida foydalanilgan (TMFA S.U.Umarov nomidagi fizika-texnika institutining 2024-yil 15-noyabrdagi ma'lumotnomasi). Ilmiy natijalarning qo'llanilishi svetodiodlarning va sezgirligi yuqori bo'lgan yangi datchiklarning elektrooptik xususiyatlarini aniqlash imkonini bergan;

sirka va propion kislotalarining asetonitril va suv bilan eritmalarida O-H...N va C=O...H ko'rinishidagi vodorod bog'lanish hosil bo'lishini aniqlash natijalari Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan IL-4821091628 raqamli "Fotovaltaikada qo'llanish uchun shaffof o'tkazuvchan metall oksidlardagi nanostrukturalangan grafenli ploynkalarni shakllantirish va ulardagi zaryad tashuvchilarining ko'chish jarayonlari mexanizmlari" mavzusidagi fundamental tadqiqot loyihasida foydalanilgan (Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining 2024-yil 11-dekabrdagi ma'lumotnomasi). Ilmiy natijalarning qo'llanilishi sirka va propion kislotalarining asetonitril va suv bilan eritmalarida vodorod bog'lanish hosil bo'lish sabablarini aniqlash imkonini bergan;

tadqiqot obektlarining izolyasiyalangan monomer, dimer, trimer hamda uning asetonitril va suv molekulari bilan molekulyar klasterlarining shakllanish mexanizmlarini aniqlash natijalari Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan FZ-2020092877 raqamli "Bir jinsli bo'lmagan g'ovak muhitlarda gnomal modda ko'chishi va suyuqliklar sizishi jarayonlarining matematik modellarini tuzish va sonli tadqiq etish" mavzusidagi fundamental tadqiqot loyihasida foydalanilgan (Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining 2025-yil 11-yanvardagi ma'lumotnomasi). Ilmiy natijalarning qo'llanilishi birjinslimas g'ovak muhitlarda suyuqliklar sizishining asosiy ko'rsatkichlariga xususan, sizish tezligi, bosim, bosim gradiyenti maydonlari tarqalishiga, zonalar orasidagi massa almashinuvga suyuqliklarning anomal reologik xususiyatlaridan bog'liqligini nazariy asoslash sabablarini aniqlash imkonini bergan;

tadqiqot natijalarining tadbiqiga Scopus ilmiy ma'lumotlar bazasiga ko'ra yuqori impakt faktorli jurnallarda chop etilgan 100 ga yaqin sharh maqolalarida iqtibos keltirish orqali ham joriy qilingan.

Tadqiqot natijalarini aprobatsiya qilish. Asosiy tadqiqot natijalari 20 ta ilmiy-amaliy konferensiya va simpoziumlarda, jumladan, 13 ta xalqaro va 7 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida sinovdan o'tkazildi.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha olingan natijalar 35 ta ilmiy ishda, shulardan 12 ta ilmiy maqola, jumladan, 5 ta xorijiy va 7 ta respublika jurnallarida Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan. 1 ta monografiya chop etilgan va Adliya vazirligi tomonidan 2 ta guvohnoma olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, beshta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, hamda 89 ta rasm va 17 ta jadvaldan iborat bo'lib, dissertatsiya hajmi 220 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti aniqlangan, ishning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan hamda tadqiqot mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi va muammoning o‘rganilganlik darajasi, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e‘lon qilinganligi, ishning tuzilishi haqidagi ma‘lumotlar, dissertatsiya mavzusi bo‘yicha mamlakatimizda va xorijda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar sharhi keltirilgan.


Dissertatsiyaning **“Molekulararo o‘zaro ta’sirlar va ularning spektral namoyon bo‘lishini o‘rganish”** (adabiyotlar sharhi) nomli birinchi bobida molekulararo ta’sirlarni o‘rganishga qaratilgan eksperimental hamda nazariy tadqiqotlarning adabiyotlar sharhi keltirilgan. Shuningdek, molekulararo o‘zaro ta’sirlar va ularning bugungi kundagi talqini, vodorod va galogen bog‘lanishlar, o‘zaro ta’sirlarni o‘rganishda qo‘llaniladigan spektroskopik usullar, sirka, propion, uchftor va moy kislotalari, etanol, atsetonitril va molekularida o‘tkazilgan tadqiqotlar va ularning amaliy ahamiyati, galogen bog‘lanishga doir olib borilgan zamonaviy tadqiqotlar usullari to‘g‘risida ma‘lumotlar keltirilgan. Bunday ma‘lumotlar dissertatsiya ishining maqsadi, uni amalga oshirish va olingan natijalarni tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Birinchi bob oxirida bob bo‘yicha xulosa va muammoning bayoni keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Tajriba va nazariy hisoblash usullari va texnikasi”** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot ob‘ektlari, dissertatsiya ishidagi tajriba tadqiqotlarida foydalanilgan Raman va IQ spektroskopiyalari haqida ma‘lumotlar keltirilgan. Tajribalar Renishaw inVia Raman va IRAffinity-1S IQ-Fure spektrometrlarida o‘tkazilgan. Tajriba natijalarini to‘ldirish va tahlil qilish uchun kvanto-kimyoviy hisoblashlar olib borilgan. Hisoblashlar DFT usulida 6-311++G(d,p) bazislar to‘plami negizida Gaussian 09W, GaussView 6.1, NBO, Veda 4.0, Multiwfn 3.8 va VMD dasturlari yordamida amalga oshirilgan.


Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Tebranish spektroskopiyasi va hisoblashlar yordamida karbon kislotalarning turli erituvchilar bilan hosil qilgan komplekslarining shakllanish mexanizmlarini o‘rganish”** ga bag‘ishlangan bo‘lib, sirka, propion, uchftorsirka va yog‘ kislotalari va ularning asetonitril, suv bilan eritmalarida hosil qilgan molekulyar klasterlarining shakllanish mexanizmlarini tajriba va nazariy o‘rganish natijalari keltirilgan. 1-rasmda sirka kislotasining toza hamda asetonitril bilan aralashmasining Raman spektrlari keltirilgan. Rasmdan ko‘rinadiki, ($x=1$) toza sirka kislotasining Raman sochilish spektrlari murakkab bo‘lib, bir nechta tebranish maksimumlariga ega. Sirka kislotasining molekulararo ta’sirda ishtirok etuvchi atomlar guruhiga tegishli spektral chiziqlarining o‘zgarishi qiziqarli bo‘lganligi sababli, aynan C=O guruhi tebranish polosalarining o‘zgarishini qarab chiqilgan. Toza holda sirka kislotasining C=O tebranishiga 1672 cm^{-1} spektral chiziq mos keladi. Tajribalar shuni ko‘rsatdiki, sirka kislotasi bir nechta tebranish maksimumlar yig‘indisidan iborat ekan.

Shu bilan birgalikda, toza sirka kislotasi va uning asetonitril bilan hosil qilgan eritmaları turli konsentratsiyalarda (ya'ni: $x=0.7$, $x=0.5$, $x=0.3$ va $x=0.1$ mol ulishlarda) gi spektrlari tahlil qilindi. Eritmada $x=0.7$ sirka kislotasi 619 cm^{-1} da toza holatga nisbatan CC valent tebranishi va COC deformatsion tebranishining birgalikdagi tebranishida 3 cm^{-1} past chastota tomonga siljishiga olib keldi. Sirka kislotasi C=O tebranish polosasi toza holda 1672 cm^{-1} da kuzatilgan bo'lsa, uning asetonitril bilan $x=0.7$ mol ulushdagi eritmasida 1667 cm^{-1} da kuzatildi. Xuddi shuningdek, $x=0.5$ mol ulushida C=O tebranish polosasi 1662 cm^{-1} da kuzatildi, bu esa toza holga nisbatan 10 cm^{-1} past chastota tomonga siljishiga olib keldi. Bu klassik nazariyaga mos keladi ya'ni, molekular soni ortib borishi bilan H-bog'lanish kompleksleri soni ortadi va chastota qiymatini pasaytiradi.

Bundan tashqari, toza sirka kislotasi spektrlari va uning $x=0.7$, $x=0.5$, $x=0.3$ va $x=0.1$ mol ulishlari suvdagi eritmasi spektrlari bilan solishtirildi (2-rasm). Eritmada $x=0,7$ sirka kislotasi C=O valent tebranish polosasi 1688 cm^{-1} da kuzatildi. Xuddi shunday, $x=0.5$ va $x=0.3$ mol ulushlarda bu tebranish chastotalar ham yuqoriga siljidi (1705 va 1712 cm^{-1}). Eritma tarkibida suvning miqdori ortib $x=0.1$ mol ulushga yetganda bu tebranish polosasi 1705 cm^{-1} da kuzatildi va toza holatga nisbatan 43 cm^{-1} ko'k siljishiga olib keldi. Biroq, klassik nazariyaga ko'ra, molekular soni ortib borishi bilan H-bog'lanish kompleksleri soni ortadi va chastota qiymatini pasayadi. Bu hodisa noklassik H-bog'lanish deb ataladi va ba'zi olimlar tomonidan o'rganilmoqda.




1-rasm. Sirka kislotasi va uning asetonitril bilan eritmasining Raman spektrlari.



2-rasm. Sirka kislotasi va uning suv bilan eritmasining Raman spektrlari.

Noempirik hisoblashlar shuni ko'rsatdiki, sirka kislotasi turli agregatlar ko'rinishida bo'lib, 3-rasmda sirka kislotasining monomeri, dimeri va trimer agregatlari keltirilgan. 3-rasmning a) qismida sirka kislotasining monomeri keltirilgan. Sirka kislotasi molekulasining dipol momenti 1.73537 D ga teng. 3-rasmning b) qismida sirka kislotasining dimerli agregati keltirilgan va dimer hosil bo'lishida birinchi molekulaning C=O guruhidagi O6 atomi bilan qo'shni molekulaning C-H guruhidagi H16 atomi bilan bog' uzunligi $1,684\text{ \AA}$ ni tashkil

qilgan $C=O\dots C-H$ ko‘rinishdagi vodorod bog‘lanish hosil qiladi. Ikkinchi bog‘lanish esa birinchi molekulaning $C-H$ guruhigadi H7 atomi qo‘shni



3-rasm. Sirka kislota molekulasining a) monomer, b) dimer va c) trimerlarining optimal geometriyalari

kuzatish mumkin. Hisoblashlarga ko‘ra trimer hosil bo‘lishida 3 ta H-bog‘lanish orqali yopiq strukturali komplekslar hosil qiladi.

1-jadvalda sirka kislota va uning aregatlarining zaryadlar taqsimoti va geometrik parametrlari keltirilgan. Jadvaldan ko‘rinadiki, zaryad taqsimotlari hamda vodorod bo‘lanishda ishtirok etgan atomlarning kimyoviy bo‘lanishlarining uzunliklari o‘zgarganligini ko‘rish mumkin. Molekuladagi C1, O6 va O7 atomlari manfiy zaryadlangan, qolgan atomlar esa musbat zaryadlangan. Mulliken atom zaryadini tahlil qilish tizimning molekulyar harakatini tushuntirish uchun kvant kimyoviy hisoblaridan foydalanishda muhim rol o‘ynaydi. Buning sababi shundaki, atom zaryadlari bir qator molekulyar xususiyatlarga, jumladan elektron tuzilishga, reaktivlikka, dipol momentga, qutblanishga va tebranish spektriga ta’sir qiladi.

4-rasmda sirka kislota+suv komplekslarining optimal geometriyasi keltirilgan. 4(a)-rasmda sirka kislota+1 suv bilan yopiq tipdagi giterodimeri komplekslar hosil qilar ekan. Uning dipol momenti 1.955434 D va sirka kislota monomeriga nisbatan oshgan. Buning sababi sirka kislota va suv molekullari bir-biriga nisbatan simmetrik emas.

1-jadval.


Sirka kislotasining zaryad taqsimoti va bog' uzunligi

Atom nomeri	Zaryad (elektron birliklarda)			Atom nomeri	Atomlar orasidagi masofa (Å)		
	(monomer)	(dimer)	(trimer)		(monomer)	(dimer)	(trimer)
C ¹	-0.481266	-0.609326	-0.530853				
H ²	0.179017	0.181740	0.181687	C ¹ -H ²	1.09240	1.09247	1.09257
H ³	0.179054	0.181707	0.178316	C ¹ -H ³	1.09241	1.09245	1.09232
H ⁴	0.165203	0.169974	0.163296	C ¹ -H ⁴	1.08745	1.08744	1.08750
C ⁵	0.156054	0.324837	0.157028	C ¹ -C ⁵	1.50396	1.50302	1.50576
O ⁶	-0.306675	-0.393104	-0.395852	C ⁵ =O ⁶	1.20489	1.22522	1.21866
O ⁷	-0.172820	-0.299058	-0.310167	C ⁵ -O ⁷	1.35875	1.32298	1.32528
H ⁸	0.281433	0.443049	0.558103	O ⁷ =H ⁸	0.96907	0.99809	0.98650

Kompleks hosil bo'lish energiyasi 5.850 kkal/mol bo'lib, ikkita vodorod bog'lanish orqali yopiq tipdagi kompleks hosil qiladi. Bu bog'anishlarning biri sirka kislotasi C=O guruhidagi O⁶ atomi suvning O-H guruhidagi H¹⁰ atomi orqali bog' uzunligi 1.943 Å ga teng bo'lgan vodorod bog'lanish orqali bog'langan. Sirka kislotasining metil guruhidagi H⁴ atomi esa suvning O⁹ atomi bilan 2.525 Å bo'gan nisbatan kuchsiz bo'lgan H- bog'lanish orqali bog'langan. Suvning sonini beshtagacha oshirib hisoblashlar olib borildi. Suvning qiymati ikkitaga oshganda to'rtta vodorod bog'lanish orqali energiyasi 9.098 kkal/mol ga teng bo'lgan siklik ko'rinishdagi yopiq strukturali hosil bo'ladi (4(b)-rasm). Bu bog'lanishlarning faqat bittasi C=O bog'lanishga tegishli, Sirka kislotasining C=O guruhidagi O⁶ atomi suvning H¹⁰ atomi orqali bog' uzunligi 1.961 Å ga teng bo'lgan vodorod bog'lanish orqali bog'langan. Suvning O⁹ atomi esa sirka kislotasining metil guruhidagi H⁴ atomi orqali bog'langan. Qolgan ikkala vodorod bog'anishlar sirka kislotasining H³ va O⁷ atomlari ikkinchi suv molekulasining O¹² va H¹⁴ atomlari orqali bog'langan (H³...O¹²-2.579 Å, O⁷...H¹⁴-2.076 Å). Sirka kislotasining uchta suv bilan hosil qilgan klaster holatida (4c-rasm) sirka kislotasining C=O guruhidagi O⁶ kislorod atomi ikkita suv molekulasini bilan H-bog'lanishda ishtirok etadi (bog' uzunliklari O⁶...H¹⁰-1.939 Å, O⁶...H¹⁷-2.074 Å). Qolgan bog'lanishlar sirka kislotasining metil guruhidagi vodorod atomi va O-H guruhidagi vodorod atomi orqali bog'langan. Bizga C=O bog'lanish qiziqarliroq bo'lganligi uchun ko'proq shu bog'lanishga e'tibor qaratdik. Sirka kislotasi+4 suv kompleksini hisoblaganimizda (4d-rasm) energiyasi 28.01 kkal/mol ga teng bo'lgan yopiq tipdagi kompleks hosil bo'lar ekan. Bunda ham C=O guruhidagi O⁶ atomi ikkita H-bog'lanish orqali suv molekulasini bilan bog'langan (O⁶...H¹⁰-1.936 Å, O⁶...H¹⁷-2.068 Å). Shu tarzda suvning qiymati beshtagacha oshirilib borib hisoblashlar amalga oshirildi (4e - rasm). Sirka kislotasi+5 ta suv hosil qilgan klasterida ham sirka kislotasining C=O guruhidagi kislorod atomi ikkita suv molekulasining vodorod atomi orqali bog'langan. Sirka kislotasining C=O guruhidagi O⁶ atomi ikkita suv molekulasini bilan vodorod bog'lanish orqali bog'langan (O⁶...H¹⁰-1.927 Å, O⁶...H²²-1.859 Å)


va energiyasi 40.265 kkal/mol bo'lgan yopiq klaster hosil qiladi. Suvning miqdori oshgan sari bog'lanish energiyalari ham oshib borishi kuzatildi.

Suyuq propion kislotasida (PK) molekulararo ta'sirlarni Raman spektrida namoyon bo'lishi hamda noemperik hisoblashlar yordamida o'rganishda yanada ilmiy izlanishlar olib borishni taqozo etadi. Shu sababdan toza propoin kislotasi va



4-rasm. Sirka kislotasi+suv komplekslarining optimal geometriyasi


uning asetonitrildagi eritmasi tajribalar yordamida Raman spektrlari tahlil qilindi. 5-rasmda toza propion kislotasi va uni asetonitril bilan eritmasida olingan umumiy Raman spektrlari keltirilgan. Rasmning a) qismida toza PKning Raman spektri keltirilgan bo'lib, bu polosa bir nechta tebranish maksimumga ega bo'lib murakkab polosalar yig'indisidan tashkil topgan. PK kislotasi molekulasida 11 ta atomdan iborat bo'lib noxiziqli molekula bo'lganligi sababli 3·N-6 formulaga asosan 27 ta tebranish chiziqlariga ega. Raman spektrlari molekulaning dipol momentiga bog'liq bo'lganligi sababli bu yerda 10 ta tebranish polosasi aktivdir. 5-rasmning b) qismida 0.7 mol ulushi PK va 0.3 mol ulushi asetonitril hamda c) qismida 0.5 mol ulushi PK va 0.5 mol ulushi asetonitrilning Raman sochilish spektrlari keltirilgan.



5-rasm. Toza propion kislotasi va uning asetonitrildagi eritmasining Raman spektrlari

tebranish polosasi keltirilgan. Spektral chiziqning maksimumi 2948.8 cm^{-1} ga, yarim kengligi esa 19.09 cm^{-1} ga teng. Rasmdan ko'rish mumkinki, bu polosa yuqori chastota tomondan assimetriyaga ega. Bunday assimetriyaga hamda bunday katta yarim kenglikga ega ekanligi polosaning murakkabligidan dalolat beradi. Bizning

fikrimizcha, bunday katta yarim kenglikka ega bo'lishiga sabab, modda tarkibida turli komplekslar, momomer, ochiq va siklik yopiq dimerlar hamda polimer zanjirli agregatlarning mavjudligi bilan bog'liq bo'lishi kerak. Bu komplekslarga tebranish chiziqlar bir-biriga yaqin bo'lib, bir-birini qoplashi natijasida keng sohada ko'rinadi. Shuningdek, nisbatan yuqori chastota tomondagi aktivligi past bo'lgan chiziqlar boshqa C-H tebranishning assimetrik yoki deformatsion tebranishlariga tegishli. PK kuchli akseptor xususiyatiga ega bo'lgan asetonitril bilan tajribalar olib borildi.




6-rasm. PK va asetonitrilning C-H simmetrik valent tebranish polosasining Raman spektrlari

Eritmada kislotaning miqdori 0,7 M bo'lgan vaqtda kislotaning C-H simmetrik valent tebranish polosasini maksimumi 2945.7 ga va yarim kengligi 16.3 cm^{-1} ga teng. Spektral chiziqning maksimumi toza holga nisbatan 3.1 cm^{-1} ga past chastota tomonga siljigan. Yarim kengligi esa 2.79 cm^{-1} gacha kamaygan. Eritmada kislotaning miqdori 0.5 mol ulush bo'lganda C-H simmetrik valent tebranish chastotasi 2944.6 cm^{-1} ga va yarim kengligi 13.15 cm^{-1} ni tashkil etadi. Tebranish chastotasi toza holdagiga nisbatan 4.2 cm^{-1} ga kamayib, polosa past chastota tomonga siljigan. Yarim kengligi esa 5.94 cm^{-1} ga kamaygan. C-H simmetrik valent tebranish chastotasining past chastota tomonga siljishiga asosiy sabab PK va asetonitril molekullari o'rtasidagi vodorod bog'lanish bo'lib, vodorod bog'lanishning asosiy belgilari (tebranish chastotasining past chastota tomonga siljishi) ga

mos keladi. Yarim kengligining kamayishiga sabab esa, PK va asetonitril eritmasidagi asetonitrilning konsentratsiyasi oshishi bilan PKning asetonitril bilan C-H orqali bog'langan komplekslar soni kamayib borishidir.

Propion kislotasining C=O tebranishiga tegishli qutblangan Raman spektrlaridagi murakkablikni to'laroq tushuntirish va tahlil qilish maqsadida noempirik hisoblashlar o'tkazildi. 7-rasmda propion kislotasi dimerlarining gaz fazasida B3LYP/6-311++G(d,p) darajasida hisoblangan optimal geometrik strukturalari keltirilgan.



7-rasm. PK dimerlarining optimal geometrik strukturalari


Hisoblashlar ko'rsatdiki, PK molekullari o'zaro O-H...O va C-H...O vodorod bog'lar yordamida turli orientatsiyali dimer agregatlarini hosil qilgan ekan. Bular orasida karboksil guruhlari orasidagi vodorod bog'lanish orqali siklik strukturali Dimer I boshqa

dimerlarga nisbatan strukturaviy va termodinamik jihatidan eng stabil dimer hisoblanadi (2-jadval).

2-jadval. PK dimerlarining ba'zi kvant-kimyoviy hisoblash parametrlari.

Dimerlar	Energiya E, Hartree	Nisbiy energiya ΔE , kkal/mol	O'zaro ta'sir energiyasi E_{int} , kkal/mol	Gibbning ozod energiyasi G, a.u.	Dipol momenti D, Debye
Dimer I	-537.0011	0	16.41	0.1445	0.0138
Dimer II	-536.9896	7.22	9.19	0.1381	1.3964
Dimer III	-536.9809	7.59	3.77	0.1334	0.7191
Dimer IV	-536.9878	8.34	8.07	0.1381	3.6961


Shuningdek, PK molekulari 3 ta O-H...O H-bog' yordamida siklik strukturaga ega trimer agregatini hosil qiladi.



8-rasm. PK trimerining optimal geometrik strukturasi

Hisoblashlar PK va asetonitril molekularida solvatlangan fazada davom ettirildi. Hisoblash natijalari PK molekulari bitta asetonitril molekulari bilan O-H...N H-bog' orqali, ikkita asetonitril molekulari bilan esa O-H...N, C-H...N va C-H...O H-bog'lar orqali assosiatlar hosil qilishini ko'rsatdi. Hisoblashlar davom ettirilib, PKning suv molekulari bilan hosil qilgan komplekslarini o'rgandik.


Uchftorsirka kislota va uning eritmalaridagi o'zaro ta'sirlar va ularning spektral namoyon bo'lishini o'rganish maqsadida dastlab uchftorsirka kislota va uning suvli eritmalarining Raman spektrlari tadqiq etildi. 9-rasmda uchftorsirka kislotasining suvli eritmalarining Raman spektrlari keltirilgan. Ushbu spektrlar 200-4000 cm^{-1} keng oraliqdagi turli maksimumlardan tashkil topgan. Rasmning a) qismida uchftorsirka kislotasining toza holdagi spektri keltirilgan bo'lib, bunda o'zaro ta'sirga sezgir bo'lgan C=O tebranish polosasi alohida ajratilib ko'rsatilgan. Ushbu C=O tebranish polosasining maksimumi 1750.0 to'g'ri kelib, kislotaning konsentratsiyasi 0.9 mol ulushiga kamaytirilganda ushbu maksimumning qiymati 1764.4 cm^{-1} ga teng va toza holdagiga nisbatan



9-rasm. Uchftorsirka kislotasining suv bilan eritmasidagi Raman spektrlari

14.4 cm^{-1} yuqori chastota tomonga siljigan. Xuddi shuningdek, kislotaning konsentratsiyasini 0.3 mol ulushiga kamaytirganda C=O tebranish polosasining maksimumi 1786.4 cm^{-1} ga teng bo'lib toza holdagiga nisbatan 36.4 cm^{-1} yuqori chastota tomonga siljigan. Bunday siljishga sabab kislota va suv molekulari

o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirlar bo‘lib, kislota konsentratsiyasi kamayishi bilan C=O orqali o‘zaro ta’sirlar kuchsizlanib borishi bo‘lishi mumkin. Xuddi shuningdek, uchftorsirka kislota va uning eritmalaridagi o‘zaro ta’sirlar va ularning spektral namoyon bo‘lishini o‘rganish maqsadida uchftorsirka kislota va uning asetonitrildagi eritmaları ham o‘rganilgan. Tajriba natijalarini yanada tasdiqlash maqsadida kvant-kimyoviy hisoblashlar o‘tkazildi. Uchftorsirka kislotasining monomeri va suv molekulari bilan hosil qilgan molekulyar klasterlarining



10-rasm. C=O va O-H bog‘lanish masofalarining molekulyar klasterdagi suv molekulari soniga bog‘liqligi


[CF₃COOH+(H₂O)_n, n=1-7] optimal geometrik strukturalari o‘rganildi. Uchftorsirka kislotasi va suv molekulari molekulararo vodorod bog‘lanish yordamida turli molekulyar klasterlarni hosil qilar ekan. Hisoblashlar ko‘rsatdiki, molekulyar klasterdagi suv molekulari soni beshtaga yetganda [CF₃COOH+(H₂O)₅] kislotaning karboksil guruhiga tegishli proton kuchli elektrostatik ta’sir natijasida suv molekulasi o‘tadi va –COO⁻ anioni hamda H₂O⁺ kationi hosil bo‘ladi. 10-rasmdan ham ko‘rish mumkinki, kislotaning O-H bog‘ining uzunligi, ya’ni O7 va H8 atomlari orasidagi masofa suv molekulari soni

beshtaga yetganda keskin oshib ketadi. Xuddi shunday natijalar moy kislotasi komplekslari uchun ham olib borilgan.

Dissertatsiyaning “**Etanol va asetonitril eritmalarida xarakterli tebranishlarning Raman va FTIR spektrlari. Eksperiment va DFT hisoblashlari**” deb nomlangan to‘rtinchi bobida etanolning molekulararo ta’sirda ishtirok etuvchi C-H va O-H valent tebranish polosalarning Raman va Fure IQ (FTIR) spektrlarida namoyon bo‘lish tahlili qarab chiqildi. 11-rasmning (a) qismida toza etanol va uning suv bilan eritmasidagi C-H valent tebranish polosalari keltirilgan. Toza etanol C-H tebranish polosasining maksimumi $\nu=2931\text{ sm}^{-1}$ ga mos keladi. Etanolning suvli eritmasida, etanol konsentratsiyasi kamayib borishi bilan polosaning maksimumi yuqori chastota tomon siljib boradi. Eritmada etanolning miqdori 0.3 va 0.1 m.u.da C-H valent tebranish polosasining chastotasi $\nu=2933\text{ sm}^{-1}$ ga mos kelib toza holdagiga nisbatan 2 sm^{-1} yuqori chastota tomonga siljigan. Etanol konsentratsiyasi eng kam 0.05 m.u. bo‘lganda polosa maksimumi $\nu=2937\text{ sm}^{-1}$ gacha oshadi. Umumiy olganda polosa siljishining asosiy sabablaridan biri bu molekulararo vodorod (H)-bog‘lanishdir. Ya’ni, ikki molekula o‘rtasida H-bog‘lanish hosil bo‘lsa, molekula massasi oshishi tufayli chastota kamayishi (qizil siljish) sodir bo‘lishi kerak. Ammo elektromanfiyligi kichik bo‘lgan atom (misol uchun uglerod) orqali vodorod bog‘lanish sodir bo‘lsa, chastotaning yuqori chastota tomonga siljishi (ko‘k siljish) sodir bo‘ladi. Boshqacha aytganda, bunday bog‘lanish

molekulararo ta'sirlar ichida dispersion o'zaro ta'sir kuchlari tabiatiga yaqin ekan, hamda suv-etanol o'rtasida kuchsiz vodorod bog'lanish hosil bo'lar ekan.

11(b)-rasmda etanolning suv bilan eritmasida O-H valent tebranishiga tegishli spektral chiziq qaralganda, toza etanol O-H valent tebranish polosasining



11-rasm. Etanol toza va uning suv bilan eritmasi: a) C-H va b) O-H valent tebranish polosalarining Raman sochilish spektrlari


$\nu=3427 \text{ cm}^{-1}$ ga, toza holdagiga nisbatan 42 cm^{-1} ko'k siljish kuzatiladi. 12a-rasm etanolning suv bilan eritmasidagi C-H valent tebranishiga tegishli IQ spektrlari o'rganildi. Toza etanol C-H tebranish polosasining maksimumi $\nu=2972 \text{ cm}^{-1}$ ga mos keladi. Etanolning suvli eritmasida, etanol konsentratsiyasi kamayib borishi bilan polosaning maksimumi yuqori chastota tomon siljib boradi. Eritmada etanolning konsentratsiyasi 0.7 mol ulush bo'lganda polosaning maksimumi yuqori chastota tomon 2 cm^{-1} ga siljiydi. Eritmada etanolning miqdori 0.1 mol ulush bo'lganda, bu chastota $\nu=2982 \text{ cm}^{-1}$ ga to'g'ri kelib, toza holga nisbatan 10 cm^{-1} ga yuqori chastotaga siljiydi. O-H valent tebranish polosasi qaralganda esa toza etanol O-H tebranish polosasining maksimumi $\nu=3321 \text{ cm}^{-1}$ ga mos keladi. Etanolning suvli eritmasida, etanol konsentratsiyasi kamayib borishi bilan polosaning maksimumi yuqori chastota tomon siljib boradi. Etanolning miqdori eng kam 0.05 m.u. bo'lgan vaqtda polosaning maksimumi toza holga nisbatan 8 cm^{-1} ga yuqoriga siljiydi (12b-rasm). Bu yerda ham yuqorida aytib o'tilganidek, ko'k siljish kuzatiladi. Bu fikrlar Raman sochilish spektrlarida aytilgan fikrlarni yana to'ldiradi va xulosalar chiqarishga asos bo'ladi. Polosalarning bunday o'zgarishlarini qiyudagicha izohlash mumkin: etanolning suv bilan eritmasida C-H va O-H tebranish polosalari murakkab va kamida ikkita chiziqdan iborat: ulardan biri etanolning vodorod bog'lanmagan va ikkinchisi suv molekulari bilan vodorod bog'langan molekulariga tegishli polosalardan tashkil topgan. Vodorod bog'langan molekularga yuqori chastotali chiziq, vodorod bog'lanmagan erkin molekularga esa past chastotali chiziq to'g'ri kelishi mumkin. Konsentratsiya o'zgaranda bu molekularning nisbati o'zgaradi va natijada ularga tegishli polosalar intensivliklari nisbati ham o'zgaradi. Eritmada etanol miqdori kamayib borgan sari C-H va O-H valent tebranish polosalari Raman

maksimumi $\nu=3385 \text{ cm}^{-1}$ ga mos keladi. Xuddi C-H valent tebranish kabi etanolning suvli eritmasida, etanol konsentratsiyasi kamayib borishi bilan polosaning maksimumi yuqori chastota tomon siljib boradi. Eritmada etanol miqdori 0,7 m.u. bo'lganda O-H tebranish polosasining maksimumi $\nu=3393 \text{ cm}^{-1}$ ga mos kelib, toza holdagiga nisbatan 8 cm^{-1} ko'k siljish kuzatildi. Eritmada etanolning miqdori eng kam 0.05 m.u. bo'lganda polosaning maksimumi


